

DIGITAL DIPLOMACY - AS A CREATIVE DIPLOMATIC STYLE INFLUENCED ON MODERN INTERNATIONAL RELATIONS

Amonova Yasminaxon

International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan

1st year student of the International Relations department

Scientific supervisor: **Farkhod Karimov Erkinovich**

International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan

Dean of the Faculty of "Islamic Economics and International Relations", Professor.

Annotatsiya: Markaziy Osiyoda raqamli diplomatiya 2010-yillardan boshlab tashqi siyosatning muhim vositasiga aylandi. AQSh mintaqada axborot platformalari, onlayn xavfsizlik tashabbuslari va media loyihalari orqali bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli maydon ekstremistik kontentni cheklash, mustaqil OAVni qo'llab-quvvatlash va davlatlar bilan ochiq muloqotni kuchaytirish uchun qo'llanmoqda. O'zbekiston misolida esa raqamli diplomatiya amaliy hamkorlik, texnik yordam va ochiq kommunikatsiya shaklida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, raqamli diplomatiya mintaqaning axborot xavfsizligi va xalqaro aloqalariga real ta'sir qilyotgan strategik vositaga aylangan.

Kalit so'zlar: Geosiyosiy raqobat, Markaziy Osiyo strategiyasi, AQShning raqamli siyosati, Soft power (yumshoq kuch), Diplomatik kommunikatsiya.

Annotation: Digital diplomacy in Central Asia has become an important instrument of foreign policy since the 2010s. The United States directly influences the region through information platforms, online security initiatives, and media projects. The digital sphere is being used to limit extremist content, support independent media, and strengthen open dialogue with governments. In the case of Uzbekistan, digital diplomacy is manifested through practical cooperation, technical assistance, and transparent communication. Overall, digital diplomacy has turned into a strategic tool that has a real impact on the region's information security and international relations.

Keywords: Geopolitical competition, Central Asia strategy, U.S. digital policy, Soft power, Diplomatic communication.

KIRISH

Diplomatiya davlat tashqi siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos muhim vositasi bo'lib, u orqali mamlakatning tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta'minlanadi hamda himoya qilinadi. Bugungi globallashuv jarayoni avj olgan, xalqaro munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan vaziyatda milliy manfaatlarni ta'minlash, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda diplomatiyani amalga oshirish va taqdim etish usuli tubdan o'zgardi va u an'anaviy diplomatik elementlardan tobora uzoqlashmoqda. Mamlakatning qudrati asosan uning harbiy va iqtisodiy salohiyati bilan o'lchangan bo'lsa, endilikda davlatning diplomatiya vositalari orqali targ'ib etish ham tashqi siyosatning muhim mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugun raqamli diplomatiya tashqi siyosatning eng samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli diplomatiya bugungi kunda butun dunyoda keng tarqalgan tashqi siyosatning samarali vositasiga aylandi. Chunki, raqamli diplomatiya-zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi kreativ diplomatik uslub sifatida baholanmoqda. "Raqamli diplomatiya" ilk bor amerikalik jurnalist U. Dizarning "Raqamli diplomatiya: Amerika tashqi siyosati axborot

asrida” kitobida siyosiy atama sifatida ishlatilgan. Uning ta’kidlashicha, nodavlat va transmilliy tashkilotlarning ta’siri kuchaygan bir sharoitda “raqamli diplomatiya” murakkab, ammo muvaffaqiyatli aloqa vositasiga aylangan.¹ Nye Joseph S. “Raqqamli diplomatiyani xalqaro aloqalarni mustahkamlash, mojarolarning oldini olishda va davlatlar va xalqaro tashkilotlar o’rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun texnologiya va an’anaviy diplomatik uslublarni birlashtirgan model sifatida tavsiflaydi”². Shu nuqtai nazardan, raqqamli diplomatiya globallashtirgan dunyoda tezkor va samarali diplomatiyani ta’minlashda asosiy rol o’ynaydi.

Demak, raqqamli diplomatiya — bu davlatlarning tashqi siyosat maqsadlarini internet va raqqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishidir. Oddiy qilib aytganda, diplomatiya endi faqat elchixonalar va rasmiy uchrashuvlar bilan emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, onlayn platformalar orqali ham olib boriladi. Raqqamli diplomatiya diplomatik maqsadlarga erishishda Internet va yangi axborot kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalanish hamdir. Raqqamli diplomatiya davlat idoralari, masalan, Tashqi ishlar vazirliklari, elchixonalar va konsulliklar, elchilar yoki elchilar kabi individual diplomatlar, shuningdek, fuqarolik jamiyati va inson huquqlari guruhlari kabi davlat bo’lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Buyuk Britaniya Tashqi ishlar va hamdo’shtlik idorasi raqqamli diplomatiyani “internet orqali tashqi siyosat muammolarini hal qilish” deb ta’riflaydi.

AQSh raqqamli diplomatiyasi XXI asrda tashqi siyosatning asosiy instrumentlaridan biriga aylangan. Dastlab u Joseph Nye ilgari surgan soft power konsepsiyasiga asoslangan bo’lib, madaniyat, ta’lim va demokratik qadriyatlarni targ’ib qilish orqali xorijiy auditoriyaga ta’sir o’tkazishni maqsad qilgan. Biroq raqqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning tez rivojlanishi natijasida AQSh diplomatiyasi oddiy axborot tarqatish bosqichidan chiqib, Big Data, sun’iy intellekt va algoritmik tahlilga tayangan murakkab tashqi siyosiy mexanizmga aylandi. Bugungi kunda AQSh raqqamli diplomatiyasi nafaqat xabar yetkazish, balki xorijiy auditoriyaning xulq-atvorini oldindan tahlil qilish, siyosiy kayfiyatlarni prognozlash va raqib davlatlarning axborot kompaniyalarini aniqlash vazifasini bajaradi.

AQSh uchun raqqamli diplomatiyaning asosiy maqsadi global axborot makonida yetakchilikni saqlab qolish va liberal-demokratik qadriyatlar ustunligini mustahkamlashdan iborat. Shu bilan birga, Xitoy va Rossiya kabi raqib davlatlarning internetdagi faoliyati AQSh tomonidan milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanadi. Shuning uchun raqqamli diplomatiya AQSh siyosatida “axborotiy to’xtatib turish” vositasiga aylangan. Global Engagement Center kabi institutlar Xitoyning raqqamli faoliyatini doimiy monitoring qiladi, zararli deb topilgan kontentni aniqlaydi va unga qarshi qarshi-narrativlar ishlab chiqadi. Bu jarayonda Big Data va sun’iy intellekt asosiy rol o’ynaydi. Natijada AQSh raqqamli diplomatiyasi klassik diplomatiyadan farqli ravishda ochiq muloqotdan ko’ra raqobat va qarshi kurash elementlariga ko’proq tayana boshladi.

Xitoy raqqamli diplomatiyasi esa butunlay boshqa model asosida shakllangan. U davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadi va uzoq muddatli strategik rejalarga bo’ysunadi. Xitoy rahbariyati raqqamli texnologiyalarni nafaqat diplomatiya, balki milliy taraqqiyotning asosiy dvigateli sifatida ko’radi. “Digital China” konsepsiyasi va sun’iy intellektni rivojlantirish bo’yicha davlat dasturlari Xitoy raqqamli diplomatiyasining poydevorini tashkil etadi. Xitoy 2030-yilgacha sun’iy intellekt sohasida global yetakchi bo’lishni maqsad qilgan va bu yo’lda Big Data, 5G, cloud texnologiyalar va aqlli shaharlar kabi yo’nalishlarni faol rivojlantirmoqda.

Xitoy raqqamli diplomatiyasining asosiy vazifasi mamlakatning xalqaro imijini yaxshilash va G’arb davlatlari tomonidan bildirilayotgan tanqidlarga qarshi turishdir. Ijtimoiy tarmoqlarda Xitoy o’zini tinch, barqaror va madaniy jihatdan boy davlat sifatida ko’rsatishga harakat qiladi. Shu bilan birga, Xitoy diplomatik akkauntlari tanqidiy fikrlarga nisbatan keskin va hujumkor javob berishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv G’arbda “Wolf Warrior Diplomacy” deb ataladi va u Xitoyning raqqamli diplomatiyasini agressiv shaklda namoyon etadi. AQSh va Yevropa

¹ Dizard, W. (2001). Digital diplomacy: U.S. foreign policy in the information age, *International Journal*, 56(3), 232-253

² Nye, Joseph S. (2004) *Soft Power: The Meansto Successin World Politics*. New York

ekspertlari bu faoliyatni “sharp power³” sifatida baholab, uni ochiq muloqot emas, balki axborot manipulyatsiyasi deb hisoblaydi.

Xitoyning muhim raqamli diplomatik loyihalaridan biri “Raqamli Ipak yo‘li” tashabbusidir. Bu loyiha orqali Xitoy boshqa davlatlarda raqamli infratuzilma, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarini rivojlantirishda ishtirok etib, o‘zining texnologik va siyosiy ta’sirini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli diplomatiya Xitoyda ichki axborot makonini nazorat qilish va jamoatchilik fikrini boshqarish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu jihat Xitoy modelining AQShdan eng katta farqi hisoblanadi.

Raqamli diplomatiyaning maqsadi mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatiga oid manfaatlarni oldinga surish, Internet-televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, mobil- aloqa va boshqalar vositalar orqali axborot targ‘ibotini amalga oshirish, ommaviy ongni shakllantirish orqali siyosiy elitalarning qarorlariga ta’sir etish kabilar kiradi. 2018-2020-yillardan boshlab raqamli diplomatiya o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu bosqichda “Katta ma’lumotlarni qayta ishlash, ijobiy xabarlar va qarshi xabarlarini tezkor tayyorlash uchun sun’iy aqlni ishlatish, foydalanuvchilarning sharhlariga ishonarli javoblarni shakllantirish, dezinformatsiya va “trollar” manbalarini aniqlash, moyil va qarshi bloggerlarni aniqlash kabi ishlar amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda virtual dunyoda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning 90% oxirgi 5 yil ichida shakllangan⁴

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda mustaqillikka erishgach, tarixiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatning geosiyosiy mavqei va milliy-tarixiy an’analari tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil bo‘ldi. Xususan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan raqamli diplomatiya tashqi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Raqamli diplomatiya globallashuv sharoitida davlatning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, milliy manfaatlarni ilgari surish va tashqi auditoriya bilan tezkor hamda samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur tendensiyalar fonida yirik davlatlar, xususan, AQSh ham Markaziy Osiyo mintaqasida o‘z tashqi siyosiy manfaatlarini ilgari surishda raqamli diplomatiya va axborot platformalaridan foydalanishni kuchaytirdi va 2010-yillarning o‘rtalaridan boshlab AQSh Markaziy Osiyo uchun Caravanserai nomli axborot platformasini ishga tushirdi. Ushbu sayt AQSh Markaziy Qo‘mondonligi (USCENTCOM) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Platforma O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston auditoriyasiga mo‘ljallangan bo‘lib, materiallar o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilinadi⁵. Manbalar tahliliga ko‘ra, 2024-yil mart holatiga ko‘ra, Caravanserai’ning rus tilidagi Facebook sahifasida 42 mingdan ortiq, o‘zbek tilidagi sahifasida 1 700 dan ortiq obunachi mavjud. Bu raqamli diplomatiyaning aholiga bevosita chiqayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli diplomatiya asosan ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Jumladan 2018-yilda USAID Markaziy Osiyoda mustaqil OAVni rivojlantirish uchun 15 million AQSh dollari ajratdi⁶. Ushbu loyiha 2018–2023-yillar davom etdi va Qozog‘iston, Qirg‘iziston hamda Tojikistonda jurnalistlar tayyorlash, onlayn nashrlarni rivojlantirishga qaratildi. Internews tashkiloti orqali yuzlab jurnalistlar raqamli jurnalistika bo‘yicha treninglardan o‘tdi.

O‘zbekiston misolida 2023-yil 17-yanvarda AQShning O‘zbekistondagi elchisi Jonatan Henik Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo‘shinlariga 225 dona FLIR infragizil monokulyar topshirdi⁷. Bu voqea AQSh elchixonasining rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilindi va keng muhokama qilindi. Bu raqamli diplomatiyaning amaliy ko‘rinishidir. Markaziy Osiyoda raqamli diplomatiya real platformalar, aniq loyihalar, mablag‘lar va statistik natijalar orqali olib

³ Christopher Walker *The Cutting Edge of Sharp Power*, “which appeared in the January 2020 issue of the *Journal of Democracy* and “What is Sharp Power?” from the July 2018 issue of the *Journal*.

⁴ Tsvetkova, N., Rushchin, D., Shiryayev, B., Yarygin, G., & Tsvetkov, I. (2020). Sprawling in Cyberspace: Barack Obama’s Legacy in Public Diplomacy and Strategic Communication. *Journal of Political Marketing*, 1–13. <https://doi.org/10.1080/15377857.2020.1724425>

⁵ Digital Diplomacy As An Instrument Of Advancing Us Interests In Central Asia (2024)

⁶ CENTRAL ASIA MEDIA PROGRAM (CAMP) <https://www.slideshare.net/slideshow/central-asia-media-program-camp/124869652>

⁷ AQSh elchisi Jonatan Henikning 2023-yil Jahon matbuot erkinligi kuni munosabati bilan bayonoti “Gazeta.uz”

borilmoqda. Bu jarayon ijtimoiy tarmoqlar, axborot saytlar, xavfsizlik tashabbuslari va media loyihalar orqali mintaqaning siyosiy va axborot muhitiga bevosita ta'sir qilmoqda. Jumladan raqamli diplomatiyani O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda keng joriy etish bilan bog'liq bir qator masalalar mamlakatimizning ustuvor vazifalari qatoridan o'rin olgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning qarorlarida qayd etilgan innovatsion yondashuvlar qatoriga raqamli texnologiyalar sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, davlat xizmatchilariga yangi vositalardan samarali foydalanish uchun ta'lim tashabbuslarini taqdim etish hamda O'zbekiston madaniyati, turizmi va iqtisodiyotini xorijda targ'ib qilish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatimizda "Elektron hukumat" va tashqi siyosat faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro munosabatlarda raqamli vositalarni joriy etishdan asosiy maqsad diplomatik aloqalarning shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishdan iborat.

Ustuvor vazifalar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:⁸ xalqaro maydonda mamlakat istiqbolini taqdim etish; mamlakatimiz madaniy boyligini namoyish etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, "Raqamli diplomatiya" reytingida O'zbekistonning o'rnini oshirish, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan tahlil markazlari bilan hamkorlik o'rnatish; raqamli makonda faol ishtirok etish orqali investorlar va sayyohlarni jalb qilish; axborot muammolariga, shu jumladan dezinformatsiyaga (feyk yangiliklarga) tezkor va to'g'ri reaksiya bildirish; xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro ishonch va qadriyatlarga asoslangan hamkorlikni mustahkamlash; mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivoji sharoitida diplomatiya mazmunan va shaklan tubdan o'zgarib, tashqi siyosatni amalga oshirishning eng muhim va samarali vositalaridan biriga aylandi. An'anaviy diplomatiya davlatlararo rasmiy muloqotlar bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda raqamli diplomatiya internet, ijtimoiy tarmoqlar, axborot platformalari va sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali keng jamoatchilikka bevosita ta'sir ko'rsatish imkonini bermoqda. Natijada davlat qudrati endilikda nafaqat harbiy yoki iqtisodiy salohiyat, balki axborot makonidagi faollik, raqamli imij va kommunikatsiya samaradorligi bilan ham o'lchanmoqda.

Raqamli diplomatiya zamonaviy xalqaro munosabatlarda tezkorlik, moslashuvchanlik va auditoriya bilan bevosita muloqot imkoniyatini ta'minlab, milliy manfaatlarni ilgari surish, ijobiy xalqaro imijni shakllantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

AQSh va Xitoy tajribalari shuni ko'rsatadiki, raqamli diplomatiya turli siyosiy model va strategiyalarga asoslanishi mumkin: AQShda u asosan soft power va axborotiy raqobatga tayangan murakkab mexanizmga aylangan bo'lsa, Xitoyda davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadigan, uzoq muddatli strategik maqsadlarga xizmat qiluvchi instrument sifatida shakllangan. Bu esa raqamli diplomatiya nafaqat muloqot, balki raqobat va ta'sir uchun kurash maydoniga aylanganini anglatadi.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston misolida raqamli diplomatiya real platformalar, aniq loyihalar va moliyaviy resurslar orqali amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Xalqaro axborot platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, media loyihalar va xavfsizlik tashabbuslari mintaqaning axborot-siyosiy muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, raqamli diplomatiya O'zbekiston uchun ham tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qilish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va global axborot makonida munosib o'rin egallashning muhim omiliga aylanmoqda. Umuman olganda, raqamli diplomatiya XXI asr xalqaro munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, u davlatlardan nafaqat texnologik salohiyat, balki puxta strategiya, axborot

⁸ <https://twiplomacy.com/info/asia/uzbekistan/>

madaniyati va mas'uliyatli yondashuvni talab etadi. Kelajakda diplomatiyaning muvaffaqiyati aynan raqamli makonda samarali va oqilona harakat qila olish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGANADABIYOTLARRO'YXATI:

1. Dizard, W. (2001). Digital diplomacy: U.S. foreign policy in the informationage, International Journal, 56(3), 232-253
2. Nye, Joseph S. (2004) Soft Power: The Meansto Successin World Politics. New York
3. Christopher WalkerThe Cutting Edge of Sharp Power,” which appeared in the January 2020 issue of the Journal of Democracy and “What is Sharp Power?” from the July 2018 issue of the Journal.
4. Tsvetkova, N., Rushchin, D., Shiryayev, B., Yarygin, G., & Tsvetkov, I. (2020). Sprawling in Cyberspace: Barack Obama’s Legacy in Public Diplomacy and Strategic Communication. Journal of Political Marketing, 1–13. <https://doi.org/10.1080/15377857.2020.1724425>
5. Digital Diplomacy As An Instrument Of Advancing Us Interests In Central Asia (2024)
6. CENTRAL ASIA MEDIA PROGRAM (CAMP) <https://www.slideshare.net/slideshow/central-asia-media-program-camp/124869652>
7. AQSh elchisi Jonatan Henikning 2023-yil Jahon matbuot erkinligi kuni munosabati bilan bayonoti “Gazeta.uz”
8. <https://twiplomacy.com/info/asia/uzbekistan/>